

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISLOM MOLIYA TIZIMINING HUQUQIY
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.****Sidikova Gulrux Ibragimovna***sidikova.g.i@gmail.com O'zbekiston Respublikasi Bank – moliya akademiyasi
tinglovchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida Islom moliya tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi. Islom moliya tizimining rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan asosiy muammolar ko'rib chiqilib, ularni bartaraf etishning mumkin bo'lgan yechimlari keltirilgan. Mazkur tizimning O'zbekiston Respublikasidagi hozirgi holati tahlil qilinib, ekspertlarning fikrlari keltiriladi.

Kalit so'zlar: islam moliyasi, musharaka, shirkat, foyda, zarar, shartnoma, vakolatlar, huquqlar, taraflar.

Annotation: This article discusses the issues of improving the legal foundations of the Islamic financial system in the Republic of Uzbekistan. The main problems hindering the development of the Islamic financial system are considered and possible solutions are given. The current situation of this system in the Republic of Uzbekistan is analyzed and expert opinions are given.

Key words: Islamic finance, musharaka, profit, losses, contract, powers, rights, parties.

Ushbu maqolada muhokama qilinadigan Islom moliya tizimi - bu shariatda belgilangan asosiy tamoyillarga zid bo'limgan holda iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish imkonini beruvchi islam moliya institutlari va vositalari majmuidir. Islom moliya tizimi islam iqtisodiyotining asosidir.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning parlamentga murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish vaqtি keldi. Bunga Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb qilinadi".¹⁵

Islom banklari va boshqa islomiy moliya institutlarining faoliyatini hamda qo'llayotgan moliyalashtirish usullarini tahlil qilish orqali ularning salohiyatini aniqlash va islomiy va noislomiy mamlakatlar o'rtaida umumiyl tushunchaga ega bo'lgan moliya tizimini rivojlantirish va takomillashtirish borasidagi imkoniyatlarini ko'rish mumkin.

Bizning fikrimizcha, hozirgi vaqtida O'zbekistonda islam investitsiya fondlari va islom moliya institutlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- "Islom moliyaviy instrumentlari to'g'risida"gi qonunni ishlab chiqish zarur.

¹⁵ 2019 yilning 7 dekabridagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagji "Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir" nomli ma'ruzasi
<https://president.uz/uz/lists/view/3119>

Boshqa qonun hujjatlarini takomillashtirish mantiqqa to'g'ri kelmaydi va huquqiy va shariat nuqtai nazaridan noto'g'ri. Chunki islam investitsiya fondlari qat'iy diniy qoidalar asosida faoliyat yuritadi va ko'plab taqiq va cheklov larga ega.

- O'zbekistonda islam obligatsiyalarini chiqarishni rivojlantirish uchun qonunchilik shartlarini ishlab chiqish. Bu iqtisodiyotimizga ko'proq islam investitsiyalarini jalb qilishga yordam beradi;

Shuni ta'kidlash joizki, islam moliya instrumentlarini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar mavjud emasligiga qaramay, O'zbekiston aholisining islam moliyasiga qiziqishi ortib bormoqda. O'zbekistonda islam mexanizmlari orqali moliyalashtirilayotgan loyihalar buyurtmachilari musulmonlar bilan bir qatorda boshqa din vakillari ekanligi islam moliyaviy instrumenylari tamoyillarining jozibadorligidan dalolat beradi.

Islam moliyasi bo'yicha ekspert, Xalqaro islam akademiyasi o'qituvchisi Alijon Ravshanov ta'kidlaganidek: "Islam moliyasi nafaqat mijozlar, balki nazorat qiluvchi organlarning ham e'tiborini tortadi, chunki u halollik va vijdoniylig tamoyillari asosida qurilgan va ijtimoiy yo'naltirilgan.¹⁶

Tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekistonda islam moliyaviy instrumentlari faoliyatini huquqiy tartibga solish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan quyidagi muammolar mavjud:

1. Islam moliyasining huquqiy maqomi to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi noaniqlik, asosan, islam va an'anaviy investitsiya tizimlari, moliyalashtirish tamoyillari va usullari o'rtasidagi tafovutlar bilan bog'liq.
2. Noqulay soliq muhiti (ikki tomonlama soliqqa tortish).
3. Islam moliyasi sohasida aholining moliyaviy savodxonligi pastligi.
4. Islam moliyasi va islam huquqi sohasida bilimga ega bo'lgan malakali mutaxassislarning yetishmasligi.

Tegishli huquqiy bazaga ega bo'limgan mamlakatda islam moliyasining rivojlanishi an'anaviy tizimga nisbatan past holatda bo'lishiga va faqat ba'zi islomiy moliyaviy xizmatlarni taklif qilish imkoniyatiga ega bo'lishligiga olib keladi. Shuning uchun islam investitsiya fondlarining bunday muhitdagi faoliyati juda cheklangan.

Ayni paytda islam moliya sanoatini tartibga soluvchi va rivojlantiruvchi qator xalqaro islam moliya institatlari mavjud bo'lib, ular standartlarni joriy qilish, islam moliyasi xizmatlari ko'lmini kengaytirish va samarali nazoratni amalga oshirish bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish kabi turli faoliyat bilan shug'ullanadilar. Musulmon bo'limgan mamlakatlar tajribasidan shuni ko'rish mumkinki, yirik islomiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish va ularning qo'llab-quvvatlashi, islam banklarining ushbu mamlakatlar iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi imkonini berdi.

Bu borada O'zbekiston nafaqat mintaqaviy, balki milliy miqyosda xalqaro islam tashkilotlariga a'zo bo'lish va hamkorlik qilish orqali islam davlatlariga moslashish siyosatini olib borishi lozim.

¹⁶ «Исламские окна» Узбекистана в финансовый мир: Eksport xulosasi.
<https://uz.sputniknews.ru/20210909/islamskie-okna-uzbekistana-v-finansovyy-mir-vzglyad-eksperta-20435136.html>

Islom moliyasi institutlarining faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoit yaratishda, ayniqsa, qonunchilikni rivojlantirishda shubhasiz, davlatning o'rni beqiyosdir.

Islom moliyasi mavjud bo'lgan mamlakatlar tajribasidan ko'ramizki O'zbekistonda islom moliyasini amaldagi qonunchilik asosida ham tartibga solish mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda islom moliyasi va umuman islom moliya institutlari oldida turgan asosiy muammo mizozlarning bir xil salohiyatga ega emasligidir. Bundan tashqari, bunday instrumentlarning faoliyatiga doir qonunchilikda belgilab qo'yilgan aniq qonunlarning yo'qligi, ularning qonuniy faoliyatini amalgaloshirishida to'siqlarning yuzaga kelishi vaziyatni yanada jiddiylashtirmoqda.

1) Asosiy muammo birinchi navbatda islomiy va an'anaviy investitsiya tizimlari, investitsiya operatsiyalarining tamoyillari va usullari o'rtasida farqlar mavjud bo'lgan O'zbekiston moliya qonunchiligida islom moliyasining huquqiy maqomining noaniqligi bilan bog'liq. Mamlakatimizda qonunlar va qoidalar foizga asoslangan kredit iqtisodiyotiga mos keladi, shuning uchun islom moliyasi o'zi uchun noqulay muhitda faoliyat olib borishga majburdir.¹⁷

2) Noqulay soliq muhiti muammosi ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunda ayrim islom moliyaviy operatsiyalarida yuzaga keladigan ikki tomonlama soliqqa tortish holatlari nazarda tutilmoxda. O'zbekiston soliq qonunchiliga ko'ra murabaha operatsiyalari soliqqa tortiladi, chunki u yuridik nuqtai nazardan oldi-sotdi shartnomasi hisoblanadi. Oddiy investitsiya fondlarida bunday holatlar QQSga tortilmasligini hisobga oladigan bo'lsak islom moliyasida shartnomada predmeti narxining oshishi islom moliya operatsiyalari raqobatbardoshligining pasayishiga olib keladi va bu holat fuqarolik va soliq qonunchilagini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

3) Islom moliyasi va investitsiyalar sohasida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish masalasi hamon dolzarbligicha qolmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, bu muammo hatto aholisining aksariyati muslimmonlar bo'lgan mamlakatlar uchun ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Shuni inobatga olgan holda me'yoriy-huquqiy bazani tayyorlash bilan parallel ravishda islom investitsiya tashkilotlari faoliyati to'g'risida tegishli ma'lumotlar ommaga taqdim etib borilishi lozim.

4) Islomiy moliya bo'yicha bilimga ega bo'lgan malakali mutaxassislar yetishmaydi.

5) Islom investitsiya operatsiyalari bo'yicha hisobot berish yuzasidan qonunchilik normalarining yo'qligi ishni qiyinlashtiradi.

6) Buyuk Britaniyaning islom moliyasi yuzasidan tajribasi shuni ko'rsatdiki, islom mahsulotlarining huquqiy maqomini aniqlash uchun uning qaysi qoidalarga mos kelishini belgilovchi – moliyaviy qonunchilikka o'zgartirishlar kiritilishi kerak bo'lgan qonunchilik sohasiga katta e'tibor qaratish lozim.

¹⁷ P. Trunin, M. Kaminskix, M. Muftyaxitdinova. Исламская финансовая система: современное состояние и перспективы развития. Москва 2009. 88 бет.

Yuqorida keltirilgan muammolarga yechim sifatida quyidagilar xizmat qilishi mumkin:

1. Dunyoning turli mamlakatlarida islom moliyasi faoliyatining mavjud tashkiliy-huquqiy jihatlarini o'rganish.
2. Islom moliyasi sohasida tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislar sonini ko'paytirish.
3. Islom moliyasi sohasida xalqaro hamkorlikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va mamlakatlar o'rtasida tajriba almashish.
4. Islom moliyasiga oid qonunchilikni islom moliyasi mamlakatimiz sharoitida faoliyat yurita olishi uchun takomillashtirish.
5. Investisiya fondi faoliyatiga oid yangi qonun hujjatlarini ishlab chiqish.
6. Islom moliyasi sohasida davlatning huquqiy maqomini mustahkamlash.
7. Islom moliyasi sohasida kadrlar tayyorlash bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish.
8. Shariat me'yorlarining o'ziga xosligi va xususiyatlarini hisobga olgan holda islomiy moliya subyektlari o'rtasidagi nizolarni hal etish bo'yicha qonun loyihasini ishlab chiqish. Bu qonun amaldagi qonunchilik doirasida bo'lishi lozim.

O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish uchun mamlakat so'nggi o'n yil ichida islom moliyasi mahsulotlarini ishlab chiqish, tegishli huquqiy bazani yaratish va islom investitsiya fondlarini tartibga solishda turli qiyinchiliklarga duch kelgan bir qator G'arb davlatlarining tajribasidan foydalanishi mumkin. Ayni paytda O'zbekiston o'z iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarning kirib kelishidan manfaatdor, bu esa ayni paytda G'arb davlatlaridan mablag' jalb qilish imkoniyatiga ega bo'limgan yirik banklar va kompaniyalarini ham e'tiborini tortadi.

Islom moliyasini davlat ko'magida rivojlantirish O'zbekistonni barqaror iqtisodiy rivojlanish yo'liga o'tishi uchun Yaqin Sharqdan maksimal darajada investitsiyalarini jalb qilish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. P. Trunin, M. Kamenskix, M. Muftyaxitdinova. Исламская финансовая система: современное состояние и перспективы развития. Moskva 2009. 88 bet.
2. L'yuis, M.K va Al'gaud, L. M.. Исламский банкинг. Cheltnem, Buyuk Britaniya: Edvard Elgar. 2001.
3. 2019 yilning 7 dekabridagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i "Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqorolik jamiyatining eng muhim mezonidir" nomli ma'ruzasi
<https://president.uz/uz/lists/view/3119>
4. Введение в исламские финансы; muftiy Muhammad Taki Usmani; Karachi; 1998 yil.

5. Основы этических (исламских) финансов: о'кув qo'llanma E.A. Baydaulet tomonidan tahrirllangan. Pavlodar, 2014.
6. Ibn Kudama, Al'-Mugni, 5.
7. Шарика (мушарака) и современные корпорации: шариат, стандарт № 12: [ingliz t. tarjima] / Islom moliya institutlarining buxgalteriya hisobi va auditini tashkil etish; [R.I. Baishev va boshqalar.]. - M.: Islom kitobi, 2011.
8. Экономист. Серия Forced Devotion: Финансы и экономика. 17 fevral 2001.
9. Vard, I. Исламские финансы в мировой экономике. Edinburg: Edinburg universiteti tahririyyati 2000.
10. «Исламские окна» Узбекистана в финансовый мир: eksport xulosasi. <https://uz.sputniknews.ru/20210909/islamskie-okna-uzbekistana-v-finansovyy-mir-vzglyad-eksperta-20435136.html>